



**Vosiqova Mamlakat Sobirovna-adolat va huquqni
himoya qilishda buyuk xizmatlar sohibi.**

Yarmatova Marjona Bahromovna

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi

M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey

2-bosqich 8-guruh o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston yuridik sohasi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan shaxsning hayoti va faoliyati yoritilgan. Toshkent yuridik institutining tashkil etilishda qatnashgan (1946) va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining o'rinbosari (1952-1957), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sud raisining o'rinbosari sifatida faoliyat yuritgan (1957-1960). 1960-1964-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Prezidiumida yuridik bo'lim mudiri, keyinchalik Vazirlar Kengashi huzuridagi yuridik komissiya raisi (1964-1970) lavozimlarini egallagan. U 1970-1984 yillarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri bo'lib ishlagan.

Kalit so'zlar: Vosiqova Mamlakat Sobirovna, Oliy Sud, fuqarolik ishlari, Qonuniylik va Adolat, shikoyat va kassatsiya, faktlar asosida qaror, taqdimnoma.

Abstract: This article describes the life and work of a person who made an incomparable contribution to the development of the legal field of Uzbekistan. He participated in the establishment of the Tashkent Legal Institute (1946) and worked as the Deputy Minister of Justice of the Republic of Uzbekistan (1952-1957), as well as the Deputy Chairman of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan (1957-1960). In 1960-1964, he held the positions of the head of the legal department in the Presidium of the



Supreme Council of the Republic of Uzbekistan, and later the chairman of the legal commission under the Council of Ministers (1964-1970). He worked as the Minister of Justice of the Republic of Uzbekistan in 1970-1984.

Key words: Vasikova Mamlakat Sobirovna, Supreme Court, civil cases, Legality and Justice, complaint and cassation, decision based on facts, presentation.

Аннотация: В данной статье описывается жизнь и деятельность человека, внесшего несравненный вклад в развитие правового поля Узбекистана. Участвовал в создании Ташкентского юридического института (1946 г.), работал заместителем министра юстиции Республики Узбекистан (1952-1957 гг.), а также заместителем председателя Верховного суда Республики Узбекистан (1957-1957 гг.). 1960). В 1960-1964 годах занимал должности заведующего юридическим отделом Президиума Верховного Совета Республики Узбекистан, а затем председателя юридической комиссии при Совете Министров (1964-1970). В 1970-1984 годах работал министром юстиции Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Васикова Мамлакат Собировна, Верховный суд, гражданские дела, законность и справедливость, жалоба и кассация, решение, основанное на фактах, изложение.

Vosiqova Mamlakat Sobirovna — huquqshunos olima, jamoat arbobi. U 1924-yil 25-dekabrda Toshkent shahri Bodomzor mahallasida Sobir ota va Lazokat opa xonadonida dunyoga kelgan. Bir kuni Sobir ota kasal bo'lib qoladi va uning eng yaqin og'aynisi oq xalatli tabiblarni olib kelib, do'stining tuzalishiga yordam beradi. Buni ko'rgan kichki Mamlakatxonim : "Men ham katta bo'lsam albatta shifokor bo'laman" degan orzu paydo bo'ladi. Ana shu orzu o'rta maktabni imtiyozli attestat bilan tamomlagan Mamlakat



Vosiqovani Toshkent tibbiyot institutiga yetaklaydi va o'qishga imtihonsiz qabul qilinadi. Amaliyot paytida talabalar morgga kirgan paytida vafot etganlarni ko'rib, u qattiq qo'rqib ketadi. Shundan keyin "Duxtir bo'laman" deb yanglishganini, bu sohada mutlaqo ishlay olmasligini tushunib yetib, institutga boshqa bormaydi.

Hujjatlarni qaytarib olib, Toshkent yuridik institutiga topshirib 1942-yil 1-sentyabrdan o'qishni boshlaydi. Kirish imtihonlarisiz qabul qilingan talaba Mamlakat Vosiqova kursning yetakchisi etib tayinlanadi. Mamlakatxon fanlarni chuqur o'zlashtirib, faqat besh bahoga o'qidi. Sinov daftarlariga to'rt baho tushmaganligi sababli "Stalin" stipendiyasini olishga muvofiq bo'ladi. Mamlakatxonning stipendiyasi va mukofotlari ota-onasining qiyin sharoitida ro'zg'or tebratishiga ancha ko'mak bo'ladi. U 1946-yilda institutni muvoffaqiyatli tugatadi. O'sha kunlarni birida uni mashhur huquqshunos olima Xadicha Sulaymonova yo'qlab, aspirantiraga qolib o'qishni davom ettirishni va unga o'zi ilmiy rahbar bo'lishini taklif qiladi. Buni eshitgan Mamlakatxonning boshi osmonga yetadi. M. Vosiqova aspiranturaga kirish imtihonlarini ham a'lo baholarga topshirib 1946-yil 18-oktabrda jinoyat huquqi kafedrasining mudiri X. Sulaymonova unga ilmiy rahbar etib tayinlanadi. Aspirantlik davridayoq M. Vosiqovaning o'qituvchilik faoliyati boshlangan. Birinchi darsga kirgan payti haqida M. Vosiqovaning o'zi ham eslaydi:

O'qituvchi sifatida auditoriyaga birinchi marta kirganimda yosh va tajribasiz qiz edim. Mening qarshimda o'tirgan talabalar katta yoshdagi, ko'pchiligi urushda qatnashganlar edi. Ular meni samimiy kutub olgan bo'lsalarda, ayrimlarining ishonchsizlik bilan qaraganlarini ham sezib turar edim. Buni dildan his etib, masuliyatni sezib turar edim. Birinchi darsim muvoffaqiyatli o'tganligidan quvonchim cheksiz edi.

1949-yilda u dissersatsiya ishini tamomlab X. Sulaymonovaga topshiradi. Ustozi uning dissertatsiyasini o'qib chiqib yuqori baholaydi va ish himoyasini Moskvada, SSSR Fanlar Akademiyasining Huquq Institutiga himoya qilishga tavsiya etadi. Ilmiy kengash



a'zolari va taklif qilinganlarning hammasi belgilangan vaqtda zalga hozir bo'lishadi. Ilmiy kengash raisi SSSR Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi N.A.Kovorin O'zbekistonlik aspirant Mamlakat Sobirovna Vosiqovaning dissertatsiyasi muhokamasi uchun ilmiy kengash majlisini ochiq deb e'lon qilib, Mamlakat Sobirovnaga so'z beradi. M. Vosiqova tadqiqotining mohiyati, uning ahamiyati haqida ishonch bilan ma'ruza qiladi. Olimlar tomonidan ketma-ket savollar beriladi. Ma'ruzani keng qamrovda jiddiy o'rganib chiqqan M.Sobirova barcha savollarga aniq va lo'nda javob beradi. 1950-yilning 1-iyulidan boshlab M.Sobirovna Toshkent Yuridik institutiga katta o'qituvchi bo'lib ish boshlaydi. 1952-yil 4-iyunida 28 yoshlik M.Vosiqova Adliya vazirining kadrlar bo'yicha o'rinbosar lavozimiga tayinlanad. Uning zimmasiga hodimlar bilan shug'ulanish, tizimini yosh va g'ayratli kadrlar bilan ta'minlash vazifasi yuklatiladi. Mamlakat Sobirovna vazirlik tizimida ishlayotgan hodimlar orasida xotin-qizlar bo'lishiga ham alohida e'tibor beradi. 1957-yil 1-maydagi ma'lumotlarga qaraganda vazirliklardagi 41 xodimning 15 nafari viloyat sudlaridagi 87 sudyaning 48 nafari 70 natariuslarning 53 nafarini xotin-qizlar tashkil etgan. Mamlakat Sobirovnaning bevosita tashabbusi bilan Adliya vazirligiga bir qator yosh huquqshunoslar kirib kelishadi. Ular orasida Karimjon Usmonovich Saidov, Xusan Muxsimovich Usmonov, Gulnora Muhtarovna Mirzaolimova, Sobir Solixovich Qodirov va boshqalar bor edi. Ular tez -tez xizmat safari bilan viloyatlarga borib Adliya boshqarmalari, sudlar, ZAKS va natariial idoralarning faoliyatini tekshirish bilan shug'ullanadi. O'tgan uch yarim yillik davr ichida Mamlakat Sobirovna O'zbekiston Respublikasi jinoyat, jinoyat protsessual, grajdanlik va grajdanlik-protsessual hamda sud to'g'risidagi qonun loyihalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

Vosiqovqa 1960-yildan O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Prezideumining Yuridik bo'limi mudiri lavozimiga tayinlanib, bu mas'uliyatli vazifada 1964-yilgacha ishlagan va nigoh, oila, yer, suv, mehnat bilan bog'liq kodekslar qabul qilinishiga amaliy



hissa qo'shgan. 1964-yilda esa O'zbekiston Respublikasi Ministerlar Soveti huzuridagi Yuridik kamissiyaning raisi lavozimiga tayinlanadi.

Mamlakat Vosiqova Sobirovnaning mo'tabar nomi YUBESKO ning qarori bilan Jahonga mashhur ayollar ro'yhati asosida tayyorlangan kitobga kiritilgan. 1997-yil 11-yanvarda M.Vosiqova 73 yoshida vafot etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, M,S,Vosiqova o'zining ilmiy va amaliy faoliyati orqali nafaqat huquqshunoslik sohasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan, balki jamiyatda adolatni ta'minlashda buyuk xizmatlarni amalga oshirgan shaxsdir. Uning mehnati bugungi avlod uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishda bebaho o'rnak bo'lib qolmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi, 2022.
2. Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022.
3. Uch mashhur o'zbek ayoli.